



BANK-MOLIYA TIZIMINING IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bakalavr ta'lim yo'nalishi talabasi

Rasulov Dilshodbek Shuxratbek o'g'li

dilshodbekrasulov191@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bank-moliya tizimining milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi muhim o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida banklar va moliyaviy institutlarning pul-kredit siyosatini amalga oshirish, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, investitsion faollikni rag'batlantirish hamda moliyaviy risklarni boshqarishdagi funksiyalari yoritib berilgan. Shuningdek, bank-moliya tizimi orqali iqtisodiyotda likvidlikni saqlash, inflyatsiyani nazorat qilish va moliyaviy inqirozlarning oldini olish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Maqolada bank tizimining real sektorni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari bank-moliya tizimini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Bank-moliya tizimi, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy barqarorlik, tijorat banklari, markaziy bank, pul-kredit siyosati, moliyaviy vositachilik, investitsiyalar, kreditlash mexanizmi, inflyatsiyani nazorat qilish, moliya bozori, bank tizimi islohoti, iqtisodiy o'sish, moliyaviy xavfsizlik.*

Kirish

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi bank-moliya tizimining samarali faoliyat yuritishiga bevosita bog'liqdir. Ushbu tizim iqtisodiyotda pul resurslarining aylanishini ta'minlab, investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi hamda real sektor rivojiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimi faoliyati aniq huquqiy asoslar, xususan, O'zbekiston Respublikasi



Prezidentining 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹gi qarori qarori mamlakat bank tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy o‘rni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan strategik hujjat hisoblanadi hamda O‘zbekiston Respublikasining 05.11.2019 yildagi O‘RQ-580-son “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”² kabi qonunlar orqali tartibga solinadi va amaliy ishlar olib borilib sohani rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Mazkur qonunlar Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritishdagi vakolatlari, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashdagi mas‘uliyati hamda tijorat banklarining iqtisodiyotdagi vositachilik rolini belgilab beradi. Tijorat banklari orqali jamg‘armalar investitsiyalarga yo‘naltiriladi, tadbirkorlik subyektlari moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanadi va aholi uchun zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatiladi. Shu jihatdan, bank-moliya tizimining huquqiy asoslari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, induktiv, deduktik, mantiqiy, monitoring, ekspress-baholash va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi. O‘rganilgan adabiyotlar natijasida mavzu to‘liq yoritib berildi. Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan islohotlar ko‘rib chiqildi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston iqtisodiyotida bank va moliya tizimlarining o‘rnini tushunish uchun dastlab iqtisodiy barqarorlik, bank-moliya tizimi kabi tushunchalarga to‘xtalib o‘tsak:

Iqtisodiy barqarorlik tushunchasi bu - mamlakatning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari muvozanatda saqlanishini, inflyatsiyaning nazorat ostida bo‘lishini,

¹ “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son qarori, <https://lex.uz/ru/docs/-3342348>

² “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining 05.11.2019 yildagi O‘RQ-580-son, <https://lex.uz/docs/-4581969>



bandlik va investitsion muhitning ijobiy bo'lishini anglatadi.³ Iqtisodchi olimlar iqtisodiy barqarorlikni makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, inflyatsiyaning past va nazorat qilinadigan darajada bo'lishi, bandlikning yuqori darajasi hamda moliyaviy tizimning ishonchliligi bilan bog'laydilar. Ushbu yondashuvga ko'ra, iqtisodiy barqarorlik iqtisodiy inqirozlarning oldini olish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda bank-moliya tizimi iqtisodiyotda pul resurslarini jamlash, taqsimlash va qayta taqsimlashni amalga oshiruvchi muhim institutlar majmui sifatida talqin etiladi. Bank-moliya tizimi Markaziy bank, tijorat banklari, moliya bozorlari va moliyaviy institutlar faoliyatini o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ushbu tizim iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik vazifasini bajarib, jamg'armalarni investitsiyalarga aylantiradi va real sektor rivojiga xizmat qiladi. Bank tizimining barqaror ishlashi moliyaviy xavflarni kamaytirish va iqtisodiy ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishida bank-moliya tizimining o'rnini mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda alohida e'tirof etilgan. O'zbekiston sharoitida banklar iqtisodiyotning asosiy moliyalashtiruvchi manbai hisoblanib, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynaydi. So'nggi yillarda olib borilgan bank tizimi islohotlari banklarning kapital bazasini mustahkamlash, raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, adabiyotlarda Markaziy bankning pul-kredit siyosati orqali iqtisodiy barqarorlikka ta'siri keng yoritilgan. Inflyatsiyani jilovlash, milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va bank tizimi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish Markaziy bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi. Ushbu jarayonlar O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror o'sish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu fikrlar bank va moliya tizimini asosli yoritib

³ IQTISODIY BARQARORLIK VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI RO'LI, Ibroximov Shoxumirza, <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/115501>



berilgan bo'lib, hozirda bu yordaida keng qamrovli loyihalar ishlab chiqilmoqda va boshqaruv tizimlari yanada takomillashtirilmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda bank-moliya tizimi hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining samarali faoliyati iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

O'zbekiston iqtisodiyotida bank-moliya tizimi nafaqat moliyaviy vositachilik vazifasini bajaradi, balki kreditlash, depozitlarni jalb qilish va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, tijorat banklarining umumiy aktivlari 866,8 trillion so'mga yetdi, bu o'tgan yilga nisbatan 17% ga ko'p. Umumiy aktivlarning 332,9 trillion so'mi xorijiy valyutada saqlanmoqda, bu umumiy aktivlarning 38% ni tashkil etadi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 43% ga kam. Xorijiy valyutadagi ulushning pasayishi bank sektorining davom etayotgan dedollarizatsiyasini aks ettiradi.⁴ Ushbu o'sish bank sektorining moliyaviy salohiyati mustahkamlanayotganini hamda iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlari kengayayotganini ko'rsatadi. Bank aktivlarining barqaror o'sishi kreditlash hajmining kengayishi, investitsiya faolligining ortishi va bank tizimiga bo'lgan ishonchning oshishi bilan bevosita bog'liqdir.

Tijorat banklari faoliyati tahlilidan ko'rinib turibdiki, kreditlar va depozitlar hajmi yil sayin barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Kreditlar hajmining ortib borishi banklarning real sektorni moliyalashtirishdagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Bu holat tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, ishlab chiqarish hajmining oshishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi. Depozitlar hajmining oshishi esa aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanayotganini va moliyaviy vositachilik samaradorligi ortayotganini bildiradi.

⁴ Banking Assets in Uzbekistan Rise to 866.8 Trillion Soums, https://www.uzdaily.uz/en/banking-assets-in-uzbekistan-rise-to-8668-trillion-soums/?utm_source



Banklarning kredit portfeli bir yil avvalgi 515,6 trillion so'mdan 582,2 trillion so'mgacha oshdi. Shundan 228,7 trillion so'mi xorijiy valyutada berilgan, umumiy ko'rsatkichga nisbatan bu 39% ni tashkil etadi. Nominal ko'rinishda kreditlar 13% ga, devalvatsiyani hisobga olgan holda esa 15% ga o'sdi. Bank tizimidagi omonatlar 286,9 trillion so'mdan 371,5 trillion so'mgacha oshdi, bu 29% ga o'sishni (real ko'rinishda 31%) tashkil etadi. Chet el valyutasidagi omonatlar 83,7 trillion so'mni yoki umumiy omonatlarning 23 foizini tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27 foizga kamaygan. Banklarning umumiy kapitali 130,4 trillion so'mga yetdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 foizga ko'p. Markaziy bank faoliyati tahlilida pul massasi hajmining bosqichma-bosqich oshib borayotgani kuzatiladi. Bu iqtisodiyotda pul aylanmasini ta'minlash va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pul-kredit siyosati bilan izohlanadi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyasi Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan qat'iy va maqsadli pul-kredit siyosatining samaradorligini ko'rsatadi. Demak, TB va MB faoliyatining uyg'unligi O'zbekiston iqtisodiyotida bank-moliya tizimining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar

Tahlillar va adabiyotlar yoritishiga ko'ra, bank-moliya tizimi O'zbekiston iqtisodiyotida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tijorat banklari orqali kreditlash va depozitlarni jalb qilish jarayonlari real sektor rivojiga, tadbirkorlik va investitsiya faoliyatining faollashuviga xizmat qiladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati esa inflyatsiyani nazorat qilish, milliy valyuta barqarorligini saqlash va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash orqali iqtisodiy muvozanatni qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, bank tizimining samarali ishlashi iqtisodiyotdagi ishonch va moliyaviy inklyuziyani oshirishga yordam beradi, bu esa uzoq muddatli barqaror o'sish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi.

1. Tijorat banklari faoliyatini kengaytirish



Tijorat banklarining kreditlash imkoniyatlarini oshirish orqali kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash mumkin. Bu nafaqat tadbirkorlikni rivojlantiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratishga, ishlab chiqarish hajmining oshishiga va mahalliy iqtisodiyotning faollashishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi.

2.Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish

Mobil banking, onlayn to'lovlar va elektron moliya tizimlarini kengaytirish orqali aholiga va tadbirkorlik subyektlariga qulaylik yaratish zarur. Bu nafaqat moliyaviy xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi, balki moliyaviy inklyuziyani oshiradi va bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar orqali moliyaviy resurslar tezroq va samaraliroq aylanadi.

3.Markaziy bankning pul-kredit siyosatini mustahkamlash

Inflyatsiyani nazorat qilish, milliy valyuta barqarorligini saqlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan makroiqtisodiy vositalarni yanada samarali ishlatish zarur. Bu iqtisodiyotning ichki va tashqi muvozanatini ta'minlaydi, moliyaviy inqirozlarning oldini oladi va uzoq muddatli barqaror o'sishga hissa qo'shadi.

4.Moliyaviy xabardorlikni oshirish

Aholiga va tadbirkorlarga moliya va bank xizmatlari bo'yicha keng ma'lumot berish orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish muhimdir. Bu bank xizmatlaridan to'g'ri va samarali foydalanishni rag'batlantiradi, moliyaviy qarorlarning sifatini yaxshilaydi va tizimga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

5.Bank tizimi islohotlarini davom ettirish

Banklarning kapital bazasini mustahkamlash, raqobatni oshirish va moliyaviy institutlar shaffofligini ta'minlash orqali tizim samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va moliyaviy sektorni rivojlantirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son qarori, <https://lex.uz/ru/docs/-3342348>
2. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining 05.11.2019 yildagi O‘RQ-580-son, <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. IQTISODIY BARQARORLIK VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI RO‘LI, Ibroximov Shoxumirza, <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/115501>
4. Banking Assets in Uzbekistan Rise to 866.8 Trillion Soums, https://www.uzdaily.uz/en/banking-assets-in-uzbekistan-rise-to-8668-trillion-soums/?utm_source